

XALQARO MOLIYAVIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORINING O‘RNI

Axmedov Umidjon Utkurovich

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlap Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik Oliy biznes maktabi magistr tinglovchisi,
Davlat Feld'yegerlik xizmati bo'lim boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro moliyaviy integratsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning jahon xo‘jaligi rivojlanishidagi roli hamda O‘zbekiston moliya bozorining ushbu jarayonlarda tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Integratsiya jarayonlarining mikro va makro darajadagi shakllanish tamoyillari, shuningdek, moliya bozorining xalqaro tizimga integratsiyalashuvini ta‘minlaydigan asosiy omillar yoritilgan. O‘zbekistonning global moliya bozorlariga integratsiya jarayonini jadallashtirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy chora-tadbirlar va konseptual yondashuvlar taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro moliyaviy integratsiya, moliya bozori, makro integratsiya, mikro integratsiya, transmilliy kapital, xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy birlashmalar, global moliyaviy oqimlar.

Abstract: This article examines the essence and conceptual foundations of international financial integration, its role in the development of the global economy, and the position of Uzbekistan’s financial market within these processes. It explores the principles of micro- and macro-level integration, as well as the key factors that ensure the integration of national financial markets into the global financial system. The study also provides recommendations for accelerating Uzbekistan’s integration into global financial markets, supported by statistical data and conceptual analyses.

Keywords: International financial integration, financial market, macro integration, micro integration, transnational capital, international division of labor, economic unions, global financial flows.

Jahon xo‘jaligi tizimida globallashtirishning chuqurlashuvi, transmilliy iqtisodiy aloqalarning kengayishi, kapital va texnologiyalarning tezkor harakati xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonlarining jadallashtirishiga asos yaratdi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdo hajmining yuksak sur‘atlarda o‘sishi, transport va kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji mamlakatlar iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liqligini keskin oshirdi. Mazkur jarayon natijasida nafaqat tayyor mahsulot, balki ishlab chiqarish omillari kapital, texnologiya va malakali ishchi kuchi ham xalqaro harakatga aylandi[1].

Aynan shu omillar iqtisodiy integratsiyaning shakllanishini tezlashtirdi va uni jahon xo'jaligi rivojining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirdi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya bu milliy xo'jaliklar (davlatlar) o'rtasida ko'p tomonlama o'zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining turli darajada va turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi. Hozirgi kunda integratsion jarayonlar to'g'risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiyasi mavjud emas[2].

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Bir guruh iqtisodchi olimlar integratsiyani jahon mamlakatlari o'rtasida yangi tovarlar oqimini shakllantirish orqali «resurslar cheklanganligi» muammosini bartaraf etish yo'li deb talqip etishsa (bu orqali jahon mamlakatlarida nisbatan serxarajat tovarlar ishlab chiqarishga chek qo'yilib, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyatini beradi, ya'ni, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi), boshqa bir guruh olimlar integratsiyani talab etuvchi dastlabki turtki sifatida noiqtisodiy omillarni ilgari suradi (masalan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqalar). Uchinchi bir guruh iqtisodchilar esa integratsiya bu - ishlab chiqarishning barqaror o'sishi. ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik kabi maqsadlarga yengilroq va tezroq erishish imkoniyatini beradi, deb hisoblashadi. Shunday qilib, u yoki bu nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni qayd etib o'tish kerakki. integratsiya bu - hududiy miqyosda sifat jihatidan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarining o'zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishi jarayonidir[3]. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar asosan ikki darajada (mikro – transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali, makro -iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali) amalga oshiriladi. Mikro darajadagi integratsion jarayonlar bir-biriga hududiy jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari kapitallarining o'zaro ta'sir doirasi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, ushbu davlatlar o'rtasida integratsion jarayonlar iqtisodiy bitimlar tizimining shakllanishi. kichik shoxobchalar, shu'ba korxonalar tashkil etilishi orqali yuz beradi. Tashkil topgan korxona va firmalar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarning tez rivojlanishi tovar almashuvini, xizmat sohasini, kapital va ishchi kuchining mamlakatlararo erkin harakatini ta'minlashga, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnologik, tashqi iqtisodiy va mudofaa, moliyaviy va valyuta sohasida yagona siyosatni o'tkazish zaruriyati tug'iladi. Yagona valyuta va moliyaviy fondlar, infratuzilmalar va umumiy davlatlararo boshqaruv organlariga ega bo'lgan iqtisodiy majmualar yaratiladi[4]. Makro darajada esa integratsiya davlatlarning iqtisodiy birlashmalarini shakllantirish hamda milliy siyosatlarni muvofiqlashtirish asosida

ro'y beradi. Iqtisodiy integratsiya asosida bir qator obyektiv omillar yotadi, ularning ichida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi: - xo'jalik hayotining yanada baynalmilallashuvi; - xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi; - umumjahon ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy-texnika inqilobi (ITI); - milliy iqtisodiyotlar ochiqlik darajasining kuchayishi va boshqalar. Ushbu obyektiv omillarning barchasi jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida bir-birlari bilan chambarchas bog'liq holda o'zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi[5]. Baynalmilallashuv omili mamlakatlar o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va takror ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidan chetga chiqish jarayonini aks ettiradi (eng avvalo, xalqaro mehnat taqsimoti asosida). Jahon xo'jalik hayoti baynalmilallashuvining o'sishi va rivojlanishida TMKlarning ta'sir doirasi katta. YuNKTAD ma'lumotiga ko'ra hozirgi kunda jahonda 65 mingdan ortiq TMKlar va ularning 850 mingdan ortiq shoxobchalari va shu'ba korxonalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI Iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi muayyan shartsharoitlarining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Birinchidan, integratsiyalashayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi yetukligi darajasi bir-biriga yaqin bo'lishi kerak. Xo'jalik mexanizmlari bir-biriga mos tushishi lozim. Kamdan-kam istisnolardan tashqari, barcha hollarda davlatlararo integratsiya industrial mamlakatlar yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida taraqqiy topadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar doirasida integratsion jarayonlar eng faol bo'ladi va yuqori samara beradi. Rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar o'rtasida integratsion jarayonlar kamdankam hollarda yuz beradi. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan ID mamlakatlar o'rtasida o'zaro integratsiyalashuv harakatlari yuz bersa-da, bu jarayonlar hozirgi kunda ham o'zining ilk rivojlanish bosqichida turibdi. Ikkinchidan, integratsiyalashayotgan mamlakatlarning geografik yaqinligi ko'p hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Aksariyat hollarda bir mintaqada bir-biriga geografik jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlar birlashadilar, chunki ular uchun transport, til va boshqa muammolarni yechish oson kechadi. Uchinchidan, rivojlanish, siyosiy, iqtisodiy hamkorlik sohasida va mamlakatlar oldida turgan boshqa muammolarning umumiyliigi. Bu muammolarni hal etish integratsiyalashayotgan mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarni taqozo etadi. Asosiy muammosi - bozor iqtisodiyotining asoslarini yaratish bo'lgan mamlakatlarning umumiy valyutani joriy qilishni maqsad qilib qo'ygan davlatlar bilan integratsiyalashuvi mumkin emasligi bunga misol bo'la oladi. To'rtinchidan, integratsion birlashmalari tuzgan davlatlarda odatda ijobiy iqtisodiy siljishlar (iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashuvi. Inftyatsiyaning pasayishi, ish bilan bandlikning o'sishi va shu kabilar) ro'y beradi va bu, shubhasiz, o'zgarishlarni kuzatib borayotgan boshqa

mamlakatlarga muayyan ta'sir ko'rsatadi va ularni interasion jarayonlarda ishtirok etishga rag'batlantiradi[6].

Xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonlari jahon xo'jaligi rivojining zamonaviy bosqichida alohida ahamiyat kasb etib, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikning kengayishiga zamin yaratmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab transport, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro savdo hajmining keskin oshishi hamda kapital va texnologiyalarning erkin harakati iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada tayyor mahsulotlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish omillarining ham xalqaro maydonga chiqishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishi va davlatlar iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi kuchaydi. Shu omillar iqtisodiy integratsiyaning shakllanishi va kengayishida asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro moliyaviy integratsiya mohiyatan davlatlar o'rtasida barqaror, uzoq muddatli va ko'p tomonlama hamkorlik shakllarining shakllanishi hamda milliy moliya bozorlarining global moliyaviy tizimga bosqichma-bosqich qo'shib borishini anglatadi. Turli iqtisodiy maktablar integratsiyaga turlicha yondashadi: ayrim iqtisodchilar integratsiyaning resurslar cheklanganligi sharoitida samaradorlikni oshirish vositasi deb hisoblaydi; boshqa guruh olimlar esa integratsiyaning boshlang'ich omillari sifatida siyosiy barqarorlik va mudofaa xavfsizligini ko'rsatadi; yana bir qarash esa integratsiya davlatlar uchun iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga tezroq erishish imkonini yaratishini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuvlarni umumlashtirgan holda, iqtisodiy integratsiyaning milliy xo'jaliklar o'rtasida sifat jihatdan yangi bozor sharoitlarini yaratish orqali iqtisodiyotlarning o'zaro yaqinlashuvi va kirishib borishi jarayoni sifatida talqin qilish mumkin.

Integratsiya jarayonlari odatda mikro va makro darajalarda namoyon bo'ladi. Mikro darajadagi integratsiya asosan transmilliy korporatsiyalar, yirik xo'jalik subyektlari va investitsion guruhlarining kapital birikmasi orqali yuzaga keladi. Ushbu jarayonlarda qo'shma korxonalar, sho'ba tashkilotlar, kichik filiallar va transchegaraviy investitsiya loyihalari muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda dunyoda 65 mingdan ortiq transmilliy korporatsiyalar va 850 mingdan ziyod sho'ba korxonalar faoliyat yuritayotgani global integratsiyaning qanchalik keng ko'lamli ekanini ko'rsatadi. Makro darajadagi integratsiya esa davlatlararo iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, yagona bozorlar, valyuta ittifoqlari, moliyaviy fondlar va davlatlararo boshqaruv mexanizmlarining shakllanishi orqali amalga oshadi.

Integratsiya jarayonlarining samarali kechishi uchun bir qator omillar zarur. Integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo'lishi,

ularning bozor mexanizmlari uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, geografik yaqinlik, umumiy tarixiy iqtisodiy aloqalar, transport xarajatlarining pastligi jarayonni yengillashtiradi. Umumiy iqtisodiy maqsadlar va muammolar mavjudligi, integratsion birlashmalar faoliyatidagi ijobiy natijalar kuzatilishi ham boshqa davlatlar uchun rag‘batlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda moliya bozorini erkinlashtirish, bank tizimini modernizatsiya qilish, kapital bozorini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali global moliyaviy integratsiyaga faol qo‘shila boshladi. Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikning kuchayishi moliya bozorining xalqaro talablarga moslashuvini jadallashtirdi. Shuningdek, Toshkent xalqaro investitsiya forumi, global obligatsiyalar emissiyasi, xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlik O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy makonda o‘z o‘rnini mustahkamlashiga xizmat qilmoqda. Moliya bozorining ochiqligi oshib borayotgani, investorlar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar va moliyaviy texnologiyalarni joriy etish O‘zbekistonning global moliya tizimiga integratsiyalashuv jarayonini yanada tezlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro moliyaviy integratsiya global iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatlarning iqtisodiy o‘rishini jadallashtiradi, investitsiya oqimlari va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi. O‘zbekistonning ushbu jarayonga faol qo‘shilishi moliyaviy islohotlarning samaradorligini oshiradi, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda mamlakatning mintaqaviy moliyaviy markazga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Kelgusida O‘zbekiston uchun asosiy vazifa — kapital bozorini yanada rivojlantirish, moliyaviy institutlar faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish va global moliyaviy oqimlar bilan integratsiyani chuqurlashtirishdan iboratdir.

REFERENCES

1. Аганбегян А.Г. Международная экономическая интеграция: теория и практика. — Москва: Экономика, 2019.
2. Баласса Б. Теория экономической интеграции. — Москва: Прогресс, 1982.
3. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. — Pearson, 2021.
4. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. — McGraw-Hill, 2020.
5. Mishkin F. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. — Pearson, 2019.
6. UNCTAD. World Investment Report. — United Nations, annual editions.

7. International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report. — Washington, D.C., annual editions.
8. World Bank. Global Economic Prospects. — Washington, D.C., 2023–2024.
9. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YETTB). Uzbekistan Country Strategy. — London, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston moliya bozori sharhi. — Toshkent, turli yillar nashrlari.
11. Ходиев Б.Ю., Хайдаров О.Ш. Халқаро иқтисодий интеграция асослари. — Тошкент: Iqtisodiyot, 2020.
12. Абдурахмонов Қ.Х. Халқаро иқтисодий муносабатлар. — Тошкент: Iqtisodiyot, 2018.
13. Azizov X., Abdurahmonov Q. O'zbekiston iqtisodiyoti va islohotlar yo'li. — Toshkent: Akademnashr, 2021.
14. OECD. International Capital Flows and Financial Integration. — Paris: OECD Publishing, 2020.
15. Lane P., Milesi-Ferretti G. The External Wealth of Nations and Global Financial Integration. — IMF Working Papers, 2018.
16. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 12. – C. 209-218.
17. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. state regulation of digital transformation of the economy // American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.
18. Suyunov D. X. Improving the introduction of a corporate management mechanism into the development of the business environment. i. f. D. diss // I. f. D. it is written to obtain a scientific degree in diss. – 2008. - T. 261.
19. Olimovich A. K., Butabaev M., X. S. D. project management in the strategic management system of the company // Galaxy International interdisciplinary research journal. – 2023. - T. 11. – №. 7. - S. 40-44.
20. Suyunov D., Khoshimov E. In modern conditions, the main directions of development of the corporate management system in Uzbekistan // economy I innovasionie tehnologii. – 2019. – №. 4. - S. 197-210.
21. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. state regulation of digital transformation of the economy // American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.